

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "MEHMONDORCHILIK" KONSEPTINI  
IFODALASHDA ISHLATILADIGAN MAQOL VA MATALLARNING  
LINGVOMADANIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7749398>



ELSEVIER



**Tursunov Mirzo Maxmudovich**

Buxoro davlat universiteti, ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti

[mirzobek\\_tursunov@gmail.com](mailto:mirzobek_tursunov@gmail.com)

**Ibotova Munavvar Oybek qizi**

Buxoro davlat universiteti 2-bosqich magistranti

[ibotovamunavvar96@gmail.com](mailto:ibotovamunavvar96@gmail.com)



**Abstract:** Ushbu maqola zamonaviy til va madaniyat muammolaridagi eng muhim lingvistik masalalardan biri bilan bog'liq. Ya'ni "mehmondo'stlik" tushunchasining ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar orqali amalga oshirilishi. Ma'lumki, turli madaniyatlar bir xil madaniy hodisalarga turlicha qarashlarga ega. Bu tushunchalarni ifodalash usullari ham farq qilishi mumkin. Maqollar u yoki bu xalqqa oid tarixiy, madaniy ma'lumotlarni yetkazish va saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ular madaniyat konteynerlari va ularning tarixiy elementlari. Madaniyat va til masalalari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish juda muhimdir.

**Keywords:** konsept, mentalitet, madaniy unsur, xalq og'zaki ijodi, tadqiq etmoq, ifodali, reprezentasiya

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 17-03-2023

Accepted: 18-03-2023

Published: 22-03-2023



**Abstract:** This article deals with one of the most essential linguistic matters in modern language and culture problems. That is implementation of the concept "hospitality" through proverbs in the English and Uzbek languages. As we know different cultures have got various views on the same cultural phenomena. Ways of representation of those notions may also vary. As proverbs play a key role to inform and keep historical, cultural data related to this or that nation. They are containers of culture and historical elements of them. Analyzing their relationship between culture and language matters is crucial.

**Keywords:** concept, mentality, cultural element, folklore, research, expressive, representation

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 17-03-2023

Accepted: 18-03-2023

Published: 22-03-2023



**Abstract:** В данной статье рассматривается один из важнейших лингвистических вопросов в современной проблеме языка и культуры. То есть реализация концепта «гостеприимство» через пословицы на английском и узбекском языках. Как известно, разные культуры имеют разные взгляды на одни и те же культурные явления. Способы представления этих понятий также могут различаться. Ведь пословицы играют ключевую роль в информировании и сохранении исторических, культурных сведений, относящихся к тому или иному народу. Они являются контейнерами культуры и их исторических элементов. Анализ их отношений между культурой и языком имеет решающее значение.

**Keywords:** концепт, менталитет, элемент культуры, фольклор, исследование, экспрессивность, репрезентация

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 17-03-2023

Accepted: 18-03-2023

Published: 22-03-2023

"Til va madaniyat" masalasi ko'p qirrali bo'lib, unga madaniyat tarixchisi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Biroq masalaning tilshunoslikka oid tomoni ikki jihatlidir, chunki til va madaniyat

o'zaro munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, ikkita savol tug'iladi: 1) turli madaniy jarayonlar tilga qanday ta'sir ko'rsatadi? 2) madaniyatga til qanday ta'sir qiladi?

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi" degan tezisi tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda.

I.Gerderning 1770-yilda yozilgan "Tilning kelib chiqishi haqida talqin" asarida inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'lagan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi. Til va madaniyatni bir-biridan ajratishning imkoni yo'q, ular o'zaro chambarchas bog'liqdir.<sup>113</sup>

Til - madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. Til - madaniyat xazinas, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. Til - madaniyat tashuvchisi bo'lib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi. Til - madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.<sup>114</sup>

Ingliz va o'zbek madaniyatida "mehmondorchilik" konseptini ifodalashda qo'llaniladigan turli leksik birliklar, jumladan maqollar va matallar qay darajada ushbu tushunchani ifodalashda xizmat qilishini aniqlash ushbu ishning asosiy masalasidir. Bu uchun avvalambor, ikki til madaniyati uchun mehmondorchilikning oz'iga xos xususiyatlari haqida bilib olishimiz kerak bo'ladi.

O'zbek xalqi uchun mehmondorchilik bu katta voqea va aslida katta tayyorgarlik ko'riladigan, xalqning qon-qoniga kirgan ulkan madaniy, axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbir hisoblanadi. Mehmonning izzat-ikromini joyiga qo'yishda musulmonlarga, xossatan o'zbek xalqiga teng keladigan millat yo'q ekanligi barchamizga ma'lumdir. Lekin har bir narsaning o'z qonun-qoidalari, tartiblari bo'lganidek mehmondorchilikda mehmonning ham mezboning ham amal qilishi kerak bo'lgan bir qancha odob va tartiblari bor. Albatta bular mehmondorchilik odoblarini bir qismigina xolos, eng asosiysi mehmon ham mezbon ham o'zaro hurmat va samimiyat ila muomalada bo'lishligidir.

---

<sup>113</sup> Krasnykh V.V. Ethnopsycholinguistics and cultural linguistics M: Gnosis, 2002

<sup>114</sup> Maslova.V.A. Tutorial, Linguaculturology. 2001

Angliya madaniyati Birlashgan Qirollik madaniyatidan ajratish ba'zan qiyin, shuning uchun ingliz madaniyati Britaniya orollari madaniyatiga ta'sir ko'rsatdi, boshqa tomondan, Angliya hayotiga boshqa madaniyatlar qanchalik ta'sir ko'rsatdi.

Shimoliy Atlantikadagi nisbatan kichik oroldan Angliya deyarli dunyoning boshqa xalqlariga ta'sir ko'rsatdi. Bu mamlakat dunyodagi madaniy rivojlanishning eng nufuzli markazlaridan biri sifatida tarixda muhim va muhim rol o'ynadi. U o'ziga xos madaniyati, odatlari, qadriyatlari va an'analari, boy va rang-barang tarixi bilan butun dunyoga mashhur. Joylar, odamlar, binolar, yodgorliklar, afsonalar va afsonalar ko'pchilikni qiziqtiradi. Zamonaviy G'arb ilmiy va falsafiy tafakkur tarixidagi eng muhim shaxslarning ko'pi Angliyada tug'ilgan, yoki bir vaqtlar yoki boshqasida yashagan. Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirik ingliz mutafakkirlari sir Isaak Nyuton, Frensis Bekon, Charlz Darvin va Yangi Zelandiyada tug'ilgan Ernest Rezerford kabi olimlar, Jon Lokk, Jon Styuart Mill, Bertran Rassell va Tomas Xobbes kabi faylasuflar va Devid Rikardo kabi iqtisodchilarni o'z ichiga oladi. va Jon Maynard Keyns. Shu sababdan ingliz xalqining ham turli milliy-madaniy masalalarda o'z so'zini baralla ayta oladigan masalalari bor.

O'zbek lingvomadaniyatidagi konseptlarni tahlil qilar ekanmiz ular ingliz madaniyatidan Sharqona lutfu-karam, ko'p mulozamat, ehtirom bilan farq qiladi. Masalan, Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan holahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan. Ba'zan muayyan bir tilning realiyalari ana shu tilning maqollarida ham o'z aksini topib majoziy ma'no kasb etadi. Masalan, "bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar" maqolida o'zbek milliy kiyim-kechaklarining atributi bo'lgan do'ppi realiyasi ishtirok etgan. Mazkur maqol: "Kishi uchun eng zarur narsa, eng katta boyluk-tanisog'lik. Sog'lik bo'lsa, boshqa hamma narsani topish mumkin, ammo hech bir narsa bilan sog'likni topib bo'lmaydi" degan ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladi. O'zbek xalqida non azal-azaldan qadrlanib, mehmondo'stlik va muqaddaslik ramzi hisoblanadi. «Avesto»da deyarli bir bob nonga bag'ishlangan, dehqonchilikning eng qimmatbaho mahsuli sifatida ta'riflangan. Ilk o'rta asrlardagi turkiy tilli lingvomadaniy jamoada mavjud bo'lgan non qadimdan mehmondo'stlik ramzi ekanligi ma'lum bo'ladi. O'zbek tili, folklori va yozma adabiyotida non hamisha ustivor mavzu mavqeiga ega. Mavjud udum, etiket qoidalariga ko'ra non ustidan hatlab o'tilmaslik, nonni teskari tishlamaslik, dasturxonga teskari qo'yilmaslik, dasturxon ustida non ushug'i ko'rilsa, barmoqni ho'llab, ushoq ustiga bosib olib, yeb qo'yilishi, agar non qo'ldan tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o'pilib, peshonaga surilishida nonning muqaddaslik ramzini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek xalqida ko'plab marosim, an'ana, irimlarda non bosh rolni bajaradi. Masalan, non ijtimoiy hayotda yaqinlik, qarindoshlik munosabatlari vujudga kelganligini anglatuvchi marosim "non ushatish yoki sindirish" orqali milliy qadriyatni ifodalaydi. Payg'ambarlar, avliyolar, ajdodlar ruhiga bag'ishlanib, hurmatni ifodalovchi "chalpak pishirish" udumi yog'da pishiriladigan non turi vositasida amalga oshiriladi. Yovuz kuchlardan himoya ramzini ifodalashini beshikga kulcha osib qo'yishda, yosh bola yoki o'spirinlar tun paytlarida uzoqroq manzilga chiqishganda o'zlari bilan non yoki non bo'lagini olib yurilish odatlarida, uzoq muddatli safar (urush yoki harbiy xizmat)ga ketayotgan yigitlarga nonning bir bo'lagini tishlatib, qolgan qismini to u safardan qaytguncha xona devorida osig'liq turishida rizq-ro'z, tiriklik ramzi ifodasini ko'rishimiz mumkin. O'zbeklarda non makonga mansublik (Samarqand non, uy non va hkz.), pishirilish usuli (tandir non, tova non, gaz-pechъ non va hak.), un tortilgan g'allaga qarab (bug'doy noni, arpa noni, makkajo'xori va oq jo'xori noni va hkz.), pishirish maqsadi ('qatlama' unashtirish, 'chalpak' ajdodlar ruhiga bag'ishlangan marosimlar uchun va hak.), tayyorlanish usuli (shirmoy non, patir va hkz.), shakl va hajm (teshik kulcha, buxanka va hkz.) kabi belgilariga ko'ra turlicha til belgilariga ega. Yuqoridagilar va quyidagi: molsiz uy bor, nonsiz uy yo'q yoki o'lgan o'zbekning yonida noni bo'lar maqollari va o'zbek xonadonidan non va rayxon isi keladi... (Hoshimov. Yon daftardagi bitiklar) kabi nutqiy ifodalar (utterence) non konseptining o'zbek lingvomadaniyatida tayanch konseptlardan ekanligini ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek tilidagi 'non' leksemasi fors tilidan o'zlashgan bo'lib izohli lug'atda quyidagicha ta'riflanadi: "xamirdan tayyorlanib maxsus artefaktlarda pishiriladigan yegulik; umuman, egulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa".

O'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilish jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir - biriga bo'g'liq ekanligi juda muhimdir. Ushbu bobda lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha o'zbek va ingliz millatiga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va ingliz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va ingliz maqollari bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi. O'zbek va ingliz xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lgan maqollardagi mavzularning barchasi ingliz xalq maqollarida ham uchrashi mumkin degan xulosaga keldik. Har ikkala tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xshash ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday

mavzudagi maqolni olmag, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir. Xullas, ingliz va o'zbek maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har ikki tilda deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir. Har ikki tildagi maqollarni chog'ishtirma tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda ingliz va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliy o'zligini ko'rsata oladi.

Biz maqol va matallar yordamida "mehmondorchilik" konseptini o'zbek madaniyatida qanday ifoda etilishini tadqiq qilayotganimiz sababli aynan o'zbek tilida "mehmondorchilik" konseptini ifoda etishi mumkin bo'lgan maqollarni taqdim etamiz:

1) Betamiz mehmon mezbongi qistar; 2) Birinchi kun mehmon – oltin mehmon, ikkinchi kun – kumush, uchinchi kun – mis, uchdan o'tsa – pes; 3) Borini bergan uyalmas; 4) Yo'lli kishining mehmoni bir kelar; 5) Yo'qcha guruch osh boladi, mehmon ko'ngli shod bo'ladi; 6) Kelguncha mehmon uyalar, kelgandan so'ng mezbong uyalar; 7) Kelish mehmondan, ketish mezbondan; 8) Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan; 9) Mezbong borini qo'ysa, mehmon ozga sanarnas; 10) Mehmon – aziz, mezbong – laziz; 11) Mehmon – atoyi Xudo; 12) Mehmon joyi ko'z ustida; 13) Mehmon izzatda, mezbong xizmatda; 14) Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan; 15) Mehmon kelgan uy – barakali; 16) Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan; 17) Mehmon kelsa, pastga tush, palov bermoq ahdga tush; 18) Mehmon kelsa uchtakina, uchib ketsa qushdakkina; 19) Mehmon kelsa choptirar, bor-yo'g'ingni toptirar; 20) Mehmon kelsa, et pishar, et bo'lmasa, bet pishar; 21) Mehmon ko'rki – dasturxon; 22) Mehmon mezbonga aziz, mezbong – mehmonga; 23) Mehmon mehmonni sevmas, mezbong hammasini sevmas; 24) Mehmon nosi uch kundan keyin sasir; 25) Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar; 26) Mehmon oz o'tirsa ham, ko'p sinar; 27) Mehmon – otangdan ulug'; 28) Mehmon so'rab yemas; 29) Mehmon – uy egasining buzog'i; 30) Mehmon – uyning ziynati; 31) Mehmonga osh qo'y, ikki qo'lini bo'sh qo'y; 32) Mehmonga shirin so'z ber; 33) Mehmonni siylagan itiga suyak tashlar; 34) Mehmonning itini tur dema; 35) Mehmonning ketishini so'rama, kelishini so'ra; 36) Mehmonning oldida mushugingni pisht dema; 37) Mehmonning otini asl derlar, uch kundan so'ng sasir derlar; 38) Mehmonning o'zi ham mehmon, so'zi ham mehmon; 39) Mehmonxonang tor bo'lsa ham, mehri-diling keng bo'lsin; 40) Oyda kelganga – oyoq, kunda kelganga – tayoq; 41) Ochiq yuz – oshdan shirin; 42) Osh – mehmon bilan aziz; 43) Osh – egasi bilan shirin; 44) Supurilmagan uyga mehmon kelar; 45) Suhbat sevmagan tegirmon qurdirar, mehmon sevmagan bolasini urar;

46) Chaqirilmagan mehmon –sariq itdan yomon; 47) Chaqirilmagan qo'noq – yo'nilmagan tayoq; 48) Shirin choying bo'lmasa, shirin tiling bo'lsin; 49) Shirin oshing bo'lmasin, shirin so'zing bo'lsin; 50) Shirmoy noningni berma, shirin so'zingni ber; 51) Erta borsang, et pishar, kechga qolsang, bet pishar; 52) Eshikdan kelganni it qopmas; 53) Yuzta siz-bizdan, bitta jiz-biz yaxshi; 54) O'zi kelgan mehmon – atoyi Xudo, chaqirib kelgan mehmon – gadoyi Xudo; 55) Qo'nguncha qo'noq uyalar, qo'ngandan keyin – uy egasi; 56) Qo'noq bir kun qo'nsa – kut, ikki kun qo'nsa – yut; 57) Qo'noq oshi yo'lga yaxshi; 58) Qo'noq to'ydim, deydi, uy egasi yoqtirmadi, deydi; 59) Qo'noq qo'ydan ham yuvosh, moy bersang ham, yeyaveradi; 60) Qo'noqqa osh ber, otiga – yem; 61) Hurag'on it egasiga qo'noq keltirar.

“Mehmondorchilik” konseptini ifodalashda xizmat qiladigan yuqoridagi maqol va matallar turli kontekstlarda ijobiy yoki salbiy ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Ingliz madaniyatida ham mehmondorchilikga oid turli maqollar mavjud. Maqollarning lingvokulturologik xususiyatlariga to'xtalar ekanmiz, millatlarning o'ziga xos milliy xarakteri va mentaliteti haqida so'z ochmay ilojimiz yo'q, albatta. Chunki xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va urf odatlarini ixcham holatda yetkazib beruvchi xalq maqollari xalqning mentalitetini ifodalashda yetakchi o'rinda turadi. Ilmiy ishimizning ushbu qismida ingliz va o'zbek tillaridagi ayrim maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilgan holda, har ikkala xalqning o'ziga xos milliy urf-odatlarini, kundalik turmush tarzidagi o'ziga xos milliy xarakterning ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Asosan har ikki tildagi maqollarni tanqidiy tahlil qilish orqali ko'proq farqli tomonlarini o'rganib, o'zaro o'xshash tomonlarining umumiy jihatlarini kerakli manbalardan foydalangan holda ifodalashga harakat qilamiz.

Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, “maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati”.

Turli tillarning maqollariga to'xtalar ekanmiz, ular o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zguasi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o'rganish millatning o'ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o'sha xalqning mentalitetini ko'rsatadi. “Mentalitet” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet “fikrlash doirasi, dunyoqarash” mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va

tasavvuri tushuniladi".<sup>115</sup> Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir”. Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu “milliy xarakter” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq. Inglizlar madaniyatida ham mehmon kutishning o'ziga xos prinsiplari, normalari mavjud.

Ingliz madaniyatida “mehmondorchilik” konseptini ifodalashda qo'llaniladigan maqol va matallardan quyida misollar keltiramiz: 1) Fish and guests smell after three days - one should not remain in some place as someone's guest for too long or else one's company will cease being desirable or enjoyable. (Fish that are not fresh typically have a very strong odor.) After the cool reception I received at breakfast, I was reminded of the adage "Fish and guests smell after three days." Grandma has been super welcoming, but I think it's probably best if we head out tonight. Fish and guests smell after three days. 2) A daily guest is a great thief in the kitchen. ~ Dutch proverb 3) A guest sees more in an hour than the host in a year. ~ Polish proverb 4) The guest who seeks special attention muddies the host's tea. ~ Japanese proverb 5) The guest who outstays his fellow guests loses his overcoat. ~ Chinese proverb 6) A guest for a day is welcome the whole year. ~ Yiddish proverb 7) The place of an uninvited guest is behind the door. ~ Yugoslavian proverb 8) A guest who breaks the dishes of his host is not soon forgotten. ~ African proverb 9) Every guest hates the others, and the host hates them all. ~ Albanian proverbs 10) The delicacy of the feast is the learned guest. ~ Chinese proverb 11) The earth is a host who kills his guests. ~ Iranian proverb 12) Guests bring good luck with them. ~ Kurdish proverb 13) A constant guest is never welcome. ~ Traditional proverb 14) The life of a guest is seven days. ~ Myanmar proverb 15) A guest will not know what fasting means. ~ Croatian proverb 16) The first day a guest, the second day a guest, the third day a calamity. ~ Indian proverb 17) Guests always have nice backs. ~ Spanish proverb 18) You can't escape death and guests. ~ Iranian proverb 19) He who is not friendly towards a good guest will never have one. ~ Chinese proverb 20) Treat thoughts as guests and wishes as children. ~ Chinese Proverb 21) He who is a guest in two houses, starves. ~ Indian proverb 22) Visits always give pleasure – if not the arrival, the departure. ~ Portuguese proverb 23) A guest hammers a nail in the wall even if he stays only one night. ~ Polish proverb 24) In the hotel of decisions the guests sleep well. ~ Iranian proverb 25) A person is a guest for one or two days, but becomes an intruder on the third. ~ Nigerien Proverb 26) If your guest becomes a cook, your

---

<sup>115</sup> Tursunov, M. (2022). PROVERB AS AN ESSENTIAL LEXICAL UNIT REPRESENTING NATIONAL CULTURE AND IDENTITY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22).

larder will soon be empty. ~ Turkish proverb 27) Ears are usually uninvited guests. ~ African proverb 28) Abuse of hospitality breaks the bridge. ~ Bemba proverb 29) Treat your guest as a guest for two days – then on the third day give him a hoe. ~ African proverb 30) A merry host makes merry guests. ~ Dutch proverb 31) Wherever the storm carries me, I go a willing guest. ~ Horace 32) A host is like a general: It takes a mishap to reveal his genius. ~ Horace Santa 33) Claus has the right idea: Visit people once a year. ~ Victor Borge 34) A guest never forgets the host who had treated him kindly. ~ Homer 35) A pretty woman is a welcome guest. ~ Lord Byron 36) To be an ideal guest, stay at home. ~ Edgar Watson Howe 37) For whom he means to make an often guest, one dish shall serve; and welcome makes the rest. ~ Joseph Hall 38) If it were not for guests all houses would be graves. ~ Kahlil Gibran 39) The good guest is almost invisible, enjoying him or herself, communing with fellow guests, and, most of all, enjoying the generous hospitality of the hosts. ~ Emily Post 40) Nowadays the host does not admit you to his hearth, but has got the mason to build one for yourself somewhere in his alley, and hospitality is the art of keeping you at the greatest distance. ~ Henry David Thoreau 41) No one can be so welcome a guest that he will not annoy his host after three days. ~ Titus Maccius Plautus<sup>116</sup>

Ushbu maqol va matallar ingliz madaniyatida “mehmondorchilik” konsepti reprezentasiyasida ma’lum bir o’ziga xos xulosalarga kelishga yordam beradi.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, har ikkala madaniyatda ham “mehmondorchilik” konseptini ifodalashga xizmat qiladigan maqol va matallar soni anchaginani tashkil etadi, ular bir necha asrlardan beri ham ingliz ham o’zbek xalqlarining bir necha asrlik mehmondorchilik, an’ana, odatlari, madaniy unsurlarini o’z ichiga olib, saqlab, ularni avloddan-avlodga yetkazishda davom etmoqda. Hech bir leksik birlik aynan maqol yoki matallarday xalq madaniyatiga oid ma’lumotlarni o’zida saqlay olmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Krasnykh V.V. Ethnopsycholinguistics and cultural linguistics M: Gnosis, 2002
2. Maslova.V.A. Tutorial, Linguaculturology. 2001
3. Tursunov, M. (2022). PROVERB AS AN ESSENTIAL LEXICAL UNIT REPRESENTING NATIONAL CULTURE AND IDENTITY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 22(22).
4. <https://proverbicals.com/guests>

<sup>116</sup> <https://proverbicals.com/guests>